

ADABIYOT ILMINING MOHIR MUNAQQIDI

Abduhamid Xolmurodov,

NavDPI professori, f.f.d.

Farkhodnizomov22@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” birinchi kitobining ahamiyati, professor Naim Karimov tahlil mahorati haqida fikr yuritilgan. Olimning o‘zbek adabiy tanqidchiligiga qo‘shgan hissasi haqida xolis ilmiy fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, tanqid, mafkura, ijtimoiy, she‘riyat, nasr, tashviqot, qatag‘onlar.

ANNOTATION

The article deals with the significance of the first book “Landscapes of Uzbek Literature of the 20th century”, reflects on the skill of Professor Naim Karimov. I tried to evaluate objectively the scientist's contribution to the development of Uzbek literary criticism.

Key words: literary criticism, criticism, ideology, social, poetry, propaganda, reprisals.

KIRISH

Adabiyotshunoslik, uning tarkibiy qismi hisoblangan adabiy tanqid adabiyot rivoji, badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida uzoq o‘tmishda yaratilgan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, Boburning “Risolai aruz”(“Muxtasar”) asarlari, XX asrga qadar yaratilgan tazkiralalar milliy adabiyotimiz tarixini o‘rganish, o‘sha davrlar adabiy jarayoni, ilmiy-nazariy fikrlar taraqqiyotini o‘rganishda bebaho xazinalardir. Hozirgi paytda o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi Sharq-u G‘arb, umuman, dunyo adabiyotshunosligi yutuqlaridan bahramand bo‘lib va ularni o‘zida mujassam etgan holda o‘z milliy zaminida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Bu borada adabiyotshunosligimiz tarixida yaratilgan darsliklarning o‘rni katta. Milliy adabiyotimiz atoqli namoyondalari ijodi, ularning yaratgan asarlari, bosib o‘tgan ibratli umr yo‘li haqida batafsil ma‘lumotlar berish, ijodkorning ham shaxsiy, ham ijodiy faoliyatini tushunarli yoritib berilgan darsliklarga esa doimo o‘quvchilarning talabi yuqori bo‘lgan. Atoqli adabiyotshunos olim, mahoratli munaqqid N. Karimov qalamiga mansub “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” kitobi ayni shu jihatga to‘la

javob beradi. Ushbu mukammal manbaning birinchi kitobining o'zida o'zbek jadid adabiyoti, XX asr so'nggi va XXI asrda ham barakali ijod qilgan adabiyot sohasining zabardast vakillari haqida ilmiy jihatdan puxta va qiziqarli ma'lumotlar, adiblar ijodiga oid yangi namunalar keltirilgan. Maqolada ayni shu darslik va uning zarur ahamiyati haqida mulohazalar bayon etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ushbu maqolani yoritishda atoqli adabiyotshunos olimlar V. Beleniskiy, B.Nazarov, B.Qosimov, Sh. Rizayevlarning adabiyotshunoslikka oid qarash-lari, tahlil etilayotgan darslik muallifining ilmiy mulohazalari va darslikda keltirilgan adabiy parcha va nazariy fikrlarga, internet saytlarida mavzuimizga dahldor o'rinlariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

“Adabiy tanqidning xos xususiyati aniq badiiy asar haqida fikr-mulohaza yuritish, uni baholash bo'lib, uning jamiyat va inson kamolotidagi o'rnini belgilashdan iborat. Ayni vaqtda u adabiy jarayon taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi” [3;7], deyiladi “O'zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligida. Ana shu muhim va mas'uliyatli vazifani bajarib kelayotgan o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ayniqsa, XX asrda fan sifatida shakllangan adabiyotshunoslik ilmida ulkan olimlar yetishib chiqdi. Ana shulardan biri nuqtadon tanqidchi, zahmatkash olim Naim Karimovdir. Atoqli olim oltmish yildan ortiq ilmiy faoliyati davomida o'nlab fundamental tadqiqotlar, yuzlab ilmiy maqolalar yaratdi, darsliklar, qo'llanmalar muallifi bo'ldi. Olimning ilmiy faoliyatiga “O'zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligida munosib baho berilgan: “U o'zining Cho'lpon, Hamza, Oybek, H.Olimjon, U.Nosir, Shayxzoda ijodiga doir tadqiqotlarida asarlarini o'rganish bilan cheklanmay, ularning ijodiy laboratoriyasiga ham chuqur kirib boradi, har bir san'atkorning xos uslub va mahorati yo'nalishlarini ilmiy-estetik, tarixiy-ma'rifiy jihatdan chuqur tahlil etadi. Shakldagi go'zallik bilan kompozitsiyadagi topqirlik, ilmiylikka zid bo'lmagan erkin badiiy taxayyul N.Karimov tadqiqotlarining o'ziga xosligini belgilaydi, qiziqarli o'qilishi va jozibasini ta'minlaydi” [3;263].

Haqiqatan ham, olim ilmiy maqolalarini o'qigan kishi roman haqida roman, qissa haqida qissa, hikoya haqida hikoya o'qigandek bo'ladi, tahlil uslubi, tadqiqotchilik mahoratiga qoyil qoladi. Zahmatkash olim ilmiy asarlarini sanab o'tish behuda vaqt sarflash, xolos, chunki adabiy jarayon hech qachon uning nazaridan chetda qolmagan, har bir adabiy hodisaga o'z vaqtida munosabat bildirishda hamisha salafilariga namuna bo'lib kelayotganliklarini alohida ta'kidlashni istardim. 2008 yilda olimning “XX asr adabiyoti manzaralari” ilmiy asarining birinchi kitobi nashr etildi. Bu o'zbek adabiyotshunosligi ilmida ulkan voqea, adabiy tanqid rivojida katta yutuq

bo'ldi. Tanqidchi, dramaturg va publitsist Shuhrat Rizayevning ushbu e'tirofi kitobning qay darajada ma'rifiy, estetik va ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi: "... o'tilgan yo'ldan o'tishni aslo istamaydigan tom ma'nodagi olim sifatida Naim aka o'z umrining faylasuf pallasida ilmiy va insoniy jasorat ko'rsatdi. Shonli va fojeiy bir asrning yaxlit adabiy ham ijtimoiy-ma'naviy manzarasini chizmoqqa jazm etdi. Chizganda ham qiyofalarni aniq, ranglarni tiniq qilib, har bir hodisa va voqeaning qonuniy joy-joyini ko'rsatib, hech narsani xaspo'shlaymay, itoatkor andishaga, mute mulohazalarga bormay, fikriy mustaqillik, ilmiy xolislik va, yana muhimi, nazokat va fasohat bilan yuz yillik adabiy hayotning mahobatli manzarasini yaratdi" [4; 4-5].

Mazkur kitob mukammal fundamental ilmiy manba hamdir. Muallif butun asar davomida har bir ijodkor haqida ma'lumot berar ekan ularning shaxsiy hayoti, badiiy ijod jarayoni, yaratgan asarlari tahlilida xolis shaxs sifatida gavdalanadi. Adiblarning xulq-atvori, ijod olami haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiradi. Ularning asarlari tahliliga bag'ishlangan mulohazalarida obrazlar, xarakterlar tasvirida samimiylikka intiladi. Tushunarli, sodda mazmunli mulohazalarni ilgari suradi. Adabiyotshunos olim mavzuni yoritish usuli va fikrlash jarayonida chinakam xalqchilikka suyanadi. "Agar xalqchilik deganda biror xalq, biror mamlakat odamlarining xulq-atvorini, urf-odatlarini va xarakter xususiyatlarini haqqoniy tasvirlashni tushunadigan bo'lsak, xalqchilik chinakam badiiy asarning zarur shartidir" [1; 250].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ulkan, muazzam ilmiy tadqiqot olti fasldan iborat. Bular: "Ijtimoiy hayot manzaralari (XX asrning birinchi choragi)", "Milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari", "Adabiy hayot manzaralari (XX asrning ikkinchi choragi)", "Ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti namoyandalari", "Topilmalar", "Ikki sohir-ikki javohir" nomlari bilan atalgan. Bu fasllarning har birida ijtimoiy va adabiy hayot chuqur tahlil etilgan, muayyan bir davr manzaralari o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan, shu davrlarga mansub adabiyot namoyandalari o'ta xolislik bilan, o'tkir nuqtadonlik bilan tavsif etilgan. Munaqqid bunday ulkan ishga qo'l urishga jur'at etganligini ham o'rni kelganda chiroyli izohlab o'tgan:

"O'zbek adabiyotining yangi, mustaqillik davrida yozuvchilarimizning o'tgan asrda qo'lga kiritgan eng muhim yutuqlari yoddan ko'tarilmasligi, eng yaxshi adabiy an'analar davom etishi, atoqli shoir va yozuvchilarimizning boy ijodiy tajribasi unut bo'lmasligi, aksincha, adabiyotimizning navqiron namoyandalari ustozlari erishgan cho'qqidan turib parvoz qilishlari lozim" [2; 6].

Bu ezgu niyat munaqqidni XX asr adabiyotimiz tarixining nurli sahifalari bilan birga fojeiy manzaralari, zulm, zo'ravonlik, shafqatsiz qatag'onlar girdobida umrboqiy asarlar yaratilgani, bu asarlarni yaratgan favqulodda noyob iste'dod egalari bo'lgan

shoir va adiblarimiz nomlarini hamisha faxr-iftixor bilan yodga olishga mas'ul ekanligimizni unutmaslikka da'vat etadi. Milliy Uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Tavallo, Hoji Muin, Xislat, Miskin ijodi, fojeiy qismatlari to'g'risidagi aniq dalillar va tarixiy hujjatlar asosida yoritilgani, ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti namoyandalaridan Abdulla Alaviy, Botu, G'afur G'ulom, Oybek, Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlar bilan birga hukmron mafkura talabiga xizmat qiladigan, badiylikdan yiroq, madhiyabozlik ruhida zo'rma-zo'rakilik bilan yozilgan asarlar ham ular ijodida uchrashini qayd etadi va bu asarlardagi kamchiliklar, nuqsonlarni ilmiy asoslab ko'rsatadi, bunday asarlar yaratilishining sabablari ham izohlanadi. M. Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon hayotida yuz bergan, keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar keltiriladiki, ularning tazyiq va ta'qiblarga qaramay yuksak badiiy saviyadagi asarlar yarata olganliklari XX asr o'zbek adabiyoti tarixining eng yorqin sahifalarini tashkil etishi haqida yorqin tasavvur uyg'otadi. Ijtimoiy silsilalar davri deb munaqqid 30-yillarning o'rtalaridan 50-yillargacha bo'lgan davrni ko'zda tutadi. Bu davrda o'zbek adabiyoti yangi janrlar bilan boyidi, ko'plab iste'dodli shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Ammo shu davrda ijod ahliga tazyiqlar ham kuchaydi, dahshatli 37-yilning qatag'onlari hech kimni ayab o'tirmagani, hukmron mafkura talablariga zig'irtakkina bo'lsa ham bo'ysunmagan asarlar qoralanib, ularning mualliflari ta'qib qilindi, qamoqlarga tashlandi [4]. Ko'p ijodkorlar jon saqlab qolish uchun ham mustabid tuzumni sharaflashga majbur bo'ldi, ko'pchiligi yangi tuzum mafkurasi to'la hukmron bo'lgan paytda tug'ilib, shu mafkura ruhida tarbiyalangani sababli jon-jahdlari bilan partiyani, sovet tuzumini madh etdi. Rus va Yevropa xalqlari tillaridan qilingan tarjimalar o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi, yangi janrlarning paydo bo'lishiga, yangicha badiiy tafakkur shakllanishiga olib keldi. Ammo ruslashtirish siyosati milliy adabiyotlarning rivojiga to'siq qo'yib qo'ydi. K. Zelinskiy degan tadqiqotchi "Oktabr va milliy adabiyotlar" degan tadqiqotida milliy adabiyotlar rus adabiyoti tajribalaridan foydalanishi, milliylikdan qochishi lozimligini ochiq-oshkora targ'ib etgan. Shu sababli shoir va adiblar o'z asarlarida mafkura talablariga bo'ysunishga majbur bo'lishdi, o'zlari istamagan holda mustabid tuzumni sharaflashdi, insonga shodlik, baxt ato etgan jamiyat deb ulug'lashdi. G'afur G'ulomday buyuk so'z san'atkori yaratuvchilik, bunyodkorlik, hayotsevarlikni ulug'lovchi chuqur falsafiy mushohadalarga boy she'rlarda ham "Kelajakka, Leninga, partiyaga ming rahmat", "Barhayot Leninning avlodlarimiz" kabi balandparvoz, zamini puch madhiyabozliklarga yo'l qo'ydi. Hamid Olimjon "Rossiya" she'rida "Men sening o'g'lingman, emasman mehmon", deb g'ururlandi. "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari"da bu holga obyektiv baho berilgan, bunday asarlarning paydo bo'lishi

sabablari ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi yetarli darajada asoslab berilgan. Hamid Olimjonning "Rossiya" she'rida shunday misralar bor:

Nevskiy uxlagan buyuk beshikda
Uyg'onmoq o'zi ham oliy bir sharaf.
Pushkin paydo bo'lgan har bir eshikda
Navoiy sharafi yashar muqaddas.

Olim sharhlaydi:

"...Pushkinni e'zozlovchi har bir rus xonadoni, ayrim istisnolarni e'tibordan soqit qilganda, hech qachon Navoiyni bilmagan, o'qimagan, sharaflamagan. Bilishni ham, o'qishni ham istamagan. Sirasini aytganda, biz, o'zbeklarning o'zimiz ham Navoiyni bir chekkaga surib qo'yib, Pushkinni tarjima qilib, nashr etaverganmiz. Furqatdan boshlab qariyb barcha mashhur shoirlarimiz, ma'rifatparvarlarimiz bizda milliy g'urur tuyg'usini emas, rus madaniyati, fani va texnikasi oldida hayrat tuyg'usini tarbiyalab kelishgan" [2; 230], deydi uallif.

Bu-achchiq haqiqat. Iste'dodli shoir bo'lgan Amin Umariyning she'rlarida mutlaqo milliy ruhning yo'qligi haqida achinib yozadi muallif. Tanqidiy mulohazalardan keyin munaqqidning ezgu niyati juda ulug', xayrli ekanligidan ko'nglingiz ravshanlashadi:

"Shubhasiz, men rus she'riyatidan yo ispan she'riyatidan o'rganishni bas qilaylik, demoqchi emasman. Men endi shu orttirilgan tajribani milliy adabiy an'analar bilan uyg'unlashtirish lozimligini, ularni milliy zaminga, xalqning milliy didiga va ehtiyojiga yaqinlashtirish yo'llarini axtarish zarurligini ta'kidlamoqchiman. Toki, jahon mavqeiga chiqajak o'zbek adabiyoti sof milliy va o'ziga xos jozibali hodisa sifatida yetti iqlimda e'tibor qozonsin" [2; 230].

Hamid Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ilmiy-adabiy manbalarga kirmagan tafsilotlar keltirilgan, ularning ijodi bugungi kun nuqtai nazaridan qanday baholanishi lozimligi ko'rsatilgan.

"Topilmalar", "Ikki sohir-ikki javohir" fasllari kitobning noyob sahifalaridir. "Topilmalar"da Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Mirtemirning e'lon qilinmagan, hech kim voqif bo'lmagan asarlari berilgan. Fitratning "Turk eli", "Biz kimmiz", "Temur sag'anasi ustinda" she'rlari Turkiyada 2000 yilda nashr etilgan "Qutulish yo'lida" kitobiga kirgan. Cho'lponning Qo'qon muxtoriyatining madhiyasi bo'lgan "Ozod turk bayrami" she'ri ham qo'lyozma shaklida bizgacha yetib kelgan va ilk bor xalqimiz mustaqillikka erishgandan keyin N.Karimov tomonidan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan. Uning Fitratdan ilhomlanib yozgan "Yurt qayg'usi" she'ri Sattor Jabborning Turkiyada nashr etilgan "Qutulish yo'lida" kitobiga kirgan. Cho'lpon Xurshidning "Farhod va Shirin" musiqali dramasidagi Farhod va Shopur duetini yozgan, shoir Abdulla Alaviy vafotiga onasi Habibaxonim marsiya-g'azaliga

muxammasi, sirdosh do'sti Sharafiddin Salohiddin o'g'liga she'riy maktublari, G'afur G'ulom bilan mushoarasi topilmalar sifatida kitobdan joy olgan. Usmon Nosir I.V.Gyotening "Egmont" tragediyasidan parcha tarjima qilgan va u shu paytgacha hech qayerda e'lon qilinmagan. Tarjima aynan Usmon Nosirga tegishli ekanligini olim Usmon Nosir ustidan olib borilgan tergov materiallari bilan tanishib aniqlagan. Mirtemirning "Halimaning daftariga" she'ri ham shu paytgacha hech qayerda e'lon qilinmagan, Halimaning Mirtemirga qanday aloqadorligini ham ko'pchilik bilmaydi. Halima Rahimova o'z vaqtida iste'dodli raqqosa bo'lgani va Mirtemir bilan turmush qurgani, Mirtemir 1932 yilda noma'lum sabablarga ko'ra qamalgach, Halima boshqa bir kishiga turmushga chiqib ketganligi, qamoq muddatini o'tab qaytgan shoir oilasini qayta tiklamoqchi bo'lgani, ammo buning imkoni bo'lmaganligini munaqqid barcha tafsilotlari bilan bayon etgan. She'r esa shoirning o'sha paytdagi qalb iztiroblarini juda ta'sirli ifodalagan.

"Ikki sohir–ikki javohir" o'zbek adabiyotining ikki buyuk namoyandasi Abdulla Qodiriy va Oybek ijodiga, bu adiblarning "O'tkan kunlar" va "Qutlug' qon" romanlari tahliliga bag'ishlangan. Har ikkala so'z san'atkorining badiiy mahorati, bir-birini takrorlamasliklari, bir-birini to'ldirishlari ilmiy asoslab berilgan.

XULOSA

"XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari"ning birinchi kitobi, shubhasiz, o'zbek adabiyotshunosligining mustaqillik yillaridagi eng katta yutuqlaridan biri. U ulkan olim, adabiyotimizning chinakam jonkuyari, tabarruk to'qson yoshni qarshilagan ustoz munaqqid N.Karimovning serzahmat mehnati mahsuli sifatida yana ham qadrliidir. Bu fundamental manba uzoq vaqtlar yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida asosiy darslik va ilmiy izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida zarur bo'ladigan nazariy fikrlar uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белениский В. "Адабий орзулар". Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. Б. 250.
2. Каримов Наим. XX аср адабиёти манзаралари. (Биринчи китоб), Тошкент: "O'ZBEKISTON", 2008 й. Б. 516
3. Назаров Б. ва бошқалар, Ўзбек адабий танқиди тарихи (университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик), Тошкент: "Tafakkur qanoti" нашриёти, 2012 й. Б.7.
4. Ризаев Шухрат. Китоб ва унинг муаллифи ҳақида бир-икки сўз, Н.Каримов, "XX аср адабиёти манзаралари", Тошкент, "O'ZBEKISTON", 2008 й. Б.4-5.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Naim_Karimov